



## XALQ DEPUTATLARI QO'SHRABOT TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 16-oktabr

VII-17-103-7-97-K/25

Qo'shrabot tumani

**Qo'shrabot tumani hokimi D.Shakarboyevning 2025-yil III choragi yakuni bilan tumanda "Kambag'allikdan farovonlik sari" Dasturi doirasida qilingan ishlar, aholi bandligi to'g'risida, "Drayver" loyihalarni bajarilishi, atrof muhitni asrash "Yashil iqtisodiyot" yili Davlat dasturi ijrosi, Yoshlar va Xotin-qizlar muammolarini hal etilishida ko'maklashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisoboti**

### **1. "Kambag'allikdan farovonlik sari" Dasturi bajarilishi:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-sentyabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" Dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 330-sonli qarorida belgilab berilgan topshiriq va vazifalardan kelib chiqib, joriy yilning o'tgan davri mobaynida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

#### **Jumladan:**

Tumandagi **3,2 ming** oilalarning **12,8 ming** nafar a'zolari bilan so'rovnoma o'tkazilib, **1,9 ming** oilalarning **8,6 ming** nafar a'zolari kambag'al oilalar reyestriga kiritildi.

Joriy yilning 9 oyi davomida **739 ta (reja 1 171 ta)** oilalarning **3,2 ming (reja 5,4 ming)** nafar a'zolari kambag'allikdan chiqarildi.

Kambag'al oilalarning **1501 tasiga** barqaror bandlik yo'nalishida yordam ko'rsatilgan bo'lsa **1492 tasiga** ijtimoiy xizmatlar ko'rsatildi. Shuningdek, **365 ta** maktabgacha va maktab ta'limi hamda **529 ta** sog'liqni saqlash bilan bog'liq muammolari hal etildi.

Bundan tashqari, **531 nafar** fuqarolar ishga joylashtirildi, **180 nafar** fuqarolarga kredit va subsidiyalar ajratildi, **779 nafar** fuqarolar tadbirkorlikka jalb etildi, **141 nafar** fuqarolar kasb-hunarga o'qitildi.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida **10 ta** og‘ir deb topilgan (*Qiyqim, Xonnazar, Do‘stlik, Pichot, Navkat, Mayintepa, Pangat, Minishkor, Yangiqishloq, Oqchobsoy*) mahallalarda elektr ta‘minotini yaxshilash uchun jami **30 ta** transformator punktlari, **1600 dona** temir beton sim tayanchlari, **43 km** tarmoqlar tortildi.

Tumanning “Navkat” mahallasida “Farovonlik markazi” foydalanishga topshirildi. Ushbu markazda bugungi kunda zamonaviy kutubxona, ingliz va nemis tillarini o‘rgatish, IT, chilangarlik o‘quv kurslari tashkil etilib, **56 nafar** yoshlar va **4 nafar** o‘qituvchilar bandligi ta‘minlandi. Bundan tashqari hunarmandchilik, tikuvchilik, milliy qo‘g‘irchoqlar tayyorlash, gilamchilik va quruq mevalarni qadoqlash yo‘nalishlarida jami **83 nafar** fuqarolar bandligi ta‘minlandi.

Kambag‘al oilalar toifalarga (*qizil, sariq, yashil*) bo‘linib, tuman va viloyat darajasidagi **106 nafar** rahbarlar biriktildi. Biriktirilgan rahbarlar tomonidan kambag‘al oilalarning muammolari birgalikda hal etib borilmoqda.

Misol uchun, “Chinoq” mahallasida tashabbuskor tadbirkor "SXF" BIG STROY BULDING" MCHJ homiyligi hisobidan 57-sonli maktabni to‘liq ta‘mirlanib jihozlab berildi. Mahallada ochiq va yopiq sport zali, oilaviy shifokorlik punkti, mahalla markaziga maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun kam ta‘minlangan oilalarga 10 ta xizmat ob‘yektlari, mahallaning asosiy yo‘l bilan bog‘lovchi 3 km yo‘li asfaltlashtirildi.

Bundan tashqari, Oqchobsoy mahallasida hududida qurilishi tugallanmagan **25 metrlik** ko‘prikn qurildi hamda Oqchobsoy mahallasining Oqchob, Ko‘kto‘nli, Orlot, Sumbul, Archa ota ziyoratgohi qishloq yo‘llarini bog‘lovchi **21 km** yo‘lni shag‘allashtirib foydalanishga topshirildi.

Yil yakuniga qadar **1,5 mingta** oilalarning **7,3 ming** a‘zolari kambag‘allikdan chiqariladi.

Shundan, **684 nafar** fuqarolar doimiy ishga joylashtiriladi, **546 nafar** fuqarolar tadbikorlikka jalb qilinadi, **149 nafar** kasb-hunarga o‘qitiladi hamda **941 nafariga** boshqa turdagi yordamlar va xizmatlar ko‘rsatiladi.

Natijada, kambag‘allik darajasi **7,7 foizdan 3,0 foizga** tushirishga erishiladi.

## **2. Aholi bandligini ta‘minlash to‘g‘risida:**

Bugungi kunda tumanda mehnat resurslari soni **69,0 ming** kishini, mehnat bilan band bo‘lganlar soni **48,9 ming** kishini yoki iqtisodiy faol aholining **94,0 foizini** tashkil etadi. Bunda:

**rasmiy sektorda** band aholi soni **19,5 ming** kishini yoki band aholining **40,0 foizini**;

**norasmiy sektorda** band bo'lganlari soni **22,2 ming** kishini yoki band aholining **45,4 foizini** tashkil qiladi.

**Ishga joylashishga muhtoj shaxslar 3,1 ming** kishini (*ishsizlik darajasi 6,1 foiz*) tashkil etmoqda.

Joriy yil **yanvar-oktyabr** oylarida **8,5 ming** nafar aholi bandligi ta'minlanib, reja **125 foizga** bajarildi (*reja 6,5 ming*). Jumladan:

- **6321 nafari tijorat banklari** (*reja 4820 nafar, bajarilishi 131 foiz*);

- **652 nafari investisiya**(*reja 530 nafar, bajarilishi 123 foiz*);

- **335 nafari qurilish** (*reja 288 nafar, bajarilishi 116 foiz*);

- **845 nafari qishloq xo'jaligi** (*reja 907 nafar, bajarilishi 93 foiz*)sohasida bandligi ta'minlandi.

Mahallabay ishlash orqali, hokim yordamchilari belgilangan vazifalar doirasida:

-**6,9 ming** nafar fuqarolar tadbirkorlikka jalb qilindi;

- **6,0 ming**nafari o'zini-o'zi band qilindi;

- **900 nafari**yakka tartibdagi tadbirkorlik tashkil etdi;

- **1229 nafar**doimiy va mavsumiy ishlarga joylashtirildi;

- **414 nafar**fuqaro kasb-hunarga o'qitildi.

Shuningdek, yanvar-oktyabr oylarida **1356 ta** mikroloyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, amalda **1478 taga** yoki **108 foizga** bajarilib, **3 014 nafar** aholining bandligi ta'minlandi.

Mikroloyihalarni amalga oshirish maqsadida jami **26,5 mlrd.** so'm kredit mablag'lari ajratildi.

Mikroloyihalarning **137 tasi** sanoat, **1087 tasi** qishloq xo'jalik yo'nalishida, **175 tasi** xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida amalga oshirildi.

Bundan tashqari, aholi tomorqalarida takroriy ekin ekilishi holatini hokim yordamchilari tomonidan xatlov jarayoni boshlangan bo'lib, bugungi kunda takroriy ekin ekilishi lozim bo'lgan **20,9 mingta** xonadon tanlab olinib, ushbu xonadonlarda **1 959 ga** yer maydoniga takroriy ekin ekilishi belgilab olindi.

Hozirgi kunga qadar **19,3 mingta** xonadon (*92,5 foiz*) xatlovdan o'tkazildi.

Tumanda ijara asosida qishloq xo'jalik yerlarining **519,7 ga** yer maydoni **944 ta** lotlarga ajratilgan holda aholiga ijara asosida berilgan bo'lib, bugungi kunga qadar Qiyqim, Shovona, Bozorjoy, Qo'shrabot, Qoratosh, Qo'shtamg'ali, Ozod kabi mahalla hududlarida joylashgan yerlarda **60 gektar**

yer maydonida bir kontur-bir mahsulot tamoyili asosida uzum ekilishi amalga oshirildi.

Yil yakuniga qadar belgilangan dastur doirasida jami **9 256 nafar**, shundan, investisiya yo‘nalishida **907 nafar**, tadbirkorlik yo‘nalishida **6 955 nafar**, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida **1 089 nafar**, qurilish sohasida **305 nafar** ishsiz fuqarolarimizni bandligi ta‘minlanadi.

Natijada ishsizlik darajasi **6,1 foizdan 5,2 foizga** tushuriladi.

### **3. “Zarbdor” tajribasi asosi drayver loyihalarining bajarilishi:**

Tumanda 2025 yilda hududlarning iqtisodiy o‘shishiga turtki beruvchi **5 ta** drayver loyihalar shakllantirilib, zarur infratuzilma bilan ta‘minlash uchun birinchi bosqichda qiymati **25,3 mlrd.** so‘mlik **3 ta** loyiha tanlab olingan.

Drayver loyihalar ishga tushurilishi natijasida **329 ta** ish o‘rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Ushbu loyihalarga infratuzilma sharoitlarini yaratish uchun respublika byudjetidan **8 mlrd. 370 mln.** so‘m ajratilishi belgilangan. Jumladan:

- obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlariga **220,0 mln.** so‘m;
- elektr tarmoqlari tortish uchun **2 mlrd. 470,0 mln.** so‘m;
- sug‘orish suvi bilan ta‘minlash uchun **2 mlrd. 500,0 mln.** so‘m;
- ichimlik suvi bilan ta‘minlash uchun **580,0 mln.** so‘m;
- yo‘l infratuzilmasini yaxshilash uchun **2 mlrd. 600,0 mln.** so‘m mablag‘ ajratildi.

Joriy yilning o‘tgan davri davomida loyihalarning infratuzilma ob‘yektlarini qurilishiga respublika byudjetidan **6 mlrd. 35 mln.** so‘m moliyalashtirildi.

Moliyalashtirilgan mablag‘lar hisobiga “Pangat” mahalla fuqarolar yig‘ining Shog‘olsoy qishlog‘iga olib boruvchi yo‘lning **3 km** qismiga asfalt qoplama yotqizish ishlari bajarilib, hududda **20 ta** uy mehmonxonasi, **10 ta** dam olish maskani tashkil etildi va **40 tadan** ortiq ish o‘rni yaratildi.

Shuningdek, bugungi kunda Drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta‘minlash maqsadida **2 ta** loyihada ishlar olib borilmoqda.

Jumladan:

- **5 ta** mahallada (*Qo‘shnamg‘ali, Qoratosh, Qo‘shrabot, Bozorjoy va Shovona*) aholiga ijaraga berilgan **97,3 gektar** yer maydonda rejalashtirilgan **11 ta** sug‘orish quduqlarining **9 tasida** qazish ishlari to‘liq yakunlandi, Qoratosh mahallasidagi **2 ta** quduq qazish ishlari olib borilmoqda.

Sugʻorish quduqlari uchun elektr tarmoqlari qurish ishlari boshlandi, transformator, temir-beton ustunlari va quyosh panellari olib kelinmoqda.

- Shovona, Xonnazar va Chimmos maxallalarida 4R-55 avtomobil yoʻli boʻyida **0,2 gektar** yer maydonini lotlarga boʻlib auksionga chiqarish orqali **“Hunarmand markazi”** hamda yengil konstruksiyali savdo va xizmat koʻrsatish loyixalarini kurilish ishlari olib borilmoqda. Ushbu loyihaning infratuzilma obʼyektlaridan:

- **1 km** yoʻlni asfaltlash ishlari yakunlangan;

- **4 dona** transformator, temir-beton ustunlari olib kelib oʻrnatilgan.

- **Shovona va Xonnazar** mahallalarida **3 dona** ichimlik suvi qudugʻi qazilib, suv nasoslari oʻrnatilgan, **Chimmos** mahallasida **1 dona** ichimlik suvi qudugʻi qaziladi.

Drayver loyihalar doirasida bugungi kunga qadar **242 ta** ish oʻrni yaratilgan.

#### **4. Atrof muhitni asrash “Yashil iqtisodiyot” yili Davlat dasturi bajarilishi:**

Atrof muhitni asrash “Yashil iqtisodiyot” yili Davlat dasturi ijrosi boʻyicha tumanda “Yashil bogʻlar”, “Yashil jamoat” parklari va “Yashil belbogʻ” bogʻlarini tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Yashil makon umummilliy loyihasini amalga oshirish, hududlarni koʻkalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt koʻchatlarini ekish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar boʻyicha yoʻl xaritasi ishlab chiqildi, manzilli dastur asosida amalga oshirilishi kerak boʻlgan vazifalar belgilab olindi.

Yashil makon umummilliy loyihasi doirasida 2025 yil kuz mavsumida manzilli dastur ishlab chiqilib, yashil makon umummilliy loyihasi davomida jami **300,0 ming** tup manzarali, mevali daraxt va buta koʻchatlar ekildi. Shundan:

- **76,0 ming** dona qishloq xoʻjaligi yerlariga;

- **32,0 ming** dona fermer xoʻjaligi yerlariga;

- **20,0 ming** dona tuman Obodonlashtirish boshqarmasi yerlariga;

- **6,0 ming** dona tuman hududidagi katta yoʻl yoqasiga;

- **75,6 ming** dona mahalla va nuroniylarni qoʻllab-quvvatlash boʻlimi tomonidan;

- **1,0 ming** dona taʼlim muassasalari yerlariga;

- **4,0 ming** dona maktabgacha talim boʻlimi yerlariga;

- **6,0 ming** dona tibbiyot boʻlimi yerlariga ekildi.

Tumandagi **35 ta** mahalla aholi punktlari, ko‘p qavatli binolar va uy joylar, hovlilar atrofi, ziyoratgohlar, obodonlashtirish hududlari, qabristonlar, avtomobil yo‘llari va qishloq xo‘jaligi ekin chetlari atroflari, tuman Davlat O‘rmon xo‘jaligi yerlariga manzarali daraxt ko‘chatlari ekish tadbirlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda.

Tumanimizda yashil makon, yashil jamoat parklari, yashil hududlar tashkil etish maqsadida Namuna mahallasi hududida **1 gektar** yer maydonga hamda Navkat mahallasi hududida **0,5 gektar** yer maydonga “Hokimlik bog‘”lari hamda Mustaqillik mahallasi hududida **0,5 gektardan** ziyod yer maydoniga “Yashil jamoat” parklari tashkil etildi.

Bundan tashqari, mahallalar hududlarida tashlandiq joylar aniqlanib, tozalanib, mevali va manzarali ko‘chatlar ekilgan va ushbu hududlarda sug‘orish tizimini tashkil qilib mas’ul fuqarolarga biriktirildi.

Kelgusida tumanning Bozorjoy mahallasining “Mening bog‘im” loyihasi doirasida “Open byudjet” portalida g‘olib deb topilgan hududga mevali va manzarali ko‘chatlar ekish rejalashtirilgan.

#### **5. Yoshlar muammolarini hal etilishida ko‘maklashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar:**

Tumanda yoshlar va hotin-qizlar muammolarini o‘rganish, ularni hal etishga ko‘maklashish borasida bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, joriy yil boshida yoshlar xatlovdan o‘tkazilib “**Yoshlar balansi**” shakllantirildi.

**Ma‘lumot uchun**, tumanda 0-30 yoshlar soni - **64216 ming** nafar (aholining 55 %) shundan, 14-30 yoshlar soni -**38,6 ming** nafarni tashkil etib, “**Yoshlar balansi**”ga asosan **28,6 ming** nafar yoshlar (**74,2%**) **“yashil”**, **9,4 ming** nafar yoshlar (**24,4%**) **“sariq”**, **648 nafar** yoshlar(**1,5%**) **“qizil”** toifalarga ajratildi.

Joriy yil boshidan bugungi kunga qadar “**Yoshlar daftari**”ga **321 nafar** yoshlar kiritilgan bo‘lib, shundan **288 nafariga** (**86,9 foiz**) ko‘mak ko‘rsatildi va daftardan chiqarildi, **33 nafari** daftarda qolmoqda.

Shuningdek, tumanda bugungi kunda jami **648 nafar** og‘ir toifadagi va otaliqqa olingan yoshlar mavjud bo‘lib, shundan **95 nafar** otaliqqa olingan yoshlar tumandagi xuquqni muxofaza qiluvchi organlarning **34 nafar** raxbar va mas’ul xodimlariga noma-nom biriktirildi.

Yoshlarning bandligini ta‘minlash tumanda og‘ir toifadagi ishsiz yoshlarni munosib ish o‘rinlariga joylashtirish tadbirkorlikka keng jalb etish va kasb-hunarga o‘rgatish maqsadida **553 nafar** ishsiz yoshlardan **109-nafari** viloyat

darajasidagi 3-ta tashkilot rahbarlariga **444 nafari 21 nafar** rahbarlarga nommanom birlashtirildi va **553 nafar (100%)** yoshlarning bandligi ta'minlandi.

Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida **28 nafar** yoshlarga **1,3mlrd.** so'mlik imtiyozli kredit ajratilib, **30 dan** ortiq ish o'rinlari yaratildi.

Joriy yilda jami **2872 nafar** (*umumta'lim muassasalari, professional ta'lim hamda oliy ta'lim muassasalaridan*) o'quvchi-talabalar ta'lim muassasalarini tamomladi.

Ushbu bitiruvchilarning **1180 nafari** oliy ta'lim muassasalariga, **78 nafari** oliy ta'limdan keyingi ta'limga o'qishga kirishi kutilmoqda.

Shuningdek, bitiruvchilarning **321 nafari** doimiy ishga joylashtiriladi, **416 nafar** kasb-hunarga o'qitiladi, **220 nafar** tadbirkorlikka o'qitiladi, **85 nafar** tartibdi migratsiya orqali, **20 nafar** qishloq xo'jaligida yer ajratish orqali, **54 nafar** subsidiya ajratish orqali, **198 nafariga** tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun imtiyozli kredit ajratish orqali, **498 nafar** bitiruvchilar boshqa yo'nalishlar orqali bandligini ta'minlash rejalashtirilgan.

Yoshlarni xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish orqali "**Ibrat farzandlari**" loyihasi doirasida **6852 nafardan** ortiq yoshlar **23 ta** xorijiy tillarni, "**Ustoz AI**" loyihasi doirasida **2237 nafar** yoshlar **20 ga** yaqin zamonaviy kasblarni, "**Qizlar akademiyasi**" loyihasi doirasida **789 nafardan** ortiq xotin-qizlar onlayn kurslarni o'rganmoqda.

"**Besh tashabbus olimpiadasi**" doirasida tumandagi **35 ta** mahalla fuqaro yig'inlarda istiqomat qiluvchi **41567 ming** nafar yoshlar **elektron** platforma orqali ro'yxatdan o'tdi.

Ro'yxatdan o'tgan yoshlarning **39541 nafar (87,6 foizi)** olimpiada doirasidagi musobaqa hamda tanlovlarga qamrab olindi.

## **6. Xotin-qizlar muammolarini hal etilishida ko'maklashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar:**

Tumanda **64,9 ming** nafar xotin-qizlar bo'lib, shulardan **25,6 ming** nafar xotin-qizlar manzilli o'rganilib, **3144 nafar** xotin-qizlar "Ayollar daftari"ning 6-bosqichiga kiritildi.

Shakllantirilgan "Ayollar daftari"ning **6 ta** toifasi bo'yicha **35 ta** mahallada "**Yo'l xaritasi**" ishlab chiqildi.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida xotin-qizlar muammolarini hal etish borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- **1768 nafar** ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlardan **545 nafari** yangi ish o'rinlariga ishga joylashtirildi, **200 nafariga** elektr pechi (*duxovka*)

berilib o‘zini-o‘zi band qilindi, **519 nafari** o‘zini-o‘zi band qildi, **132 nafari** kasbxunarga o‘qitildi, **240 nafari** tadbirkorlik markazi tomonidan tadbirkorlikka o‘qitilib, **132 nafari** tadbirkorlikka jalb qilish orqali bandligi ta‘minlandi;

- **126 nafar** tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlarning **126 nafariga** tadbirkorlik faoliyatlarini yo‘lga qo‘yishlari uchun imtiyozli kreditlar ajratildi;

- **508 nafar** boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlarning 508 nafariga 381 mln. so‘mlik **bir martalik** moddiy yordam ajratildi;

- **424 nafar** ijtimoiy yordamga muhtoj 1 va 2 guruh nogironligi bo‘lgan shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarning barchasiga **318 mln.** so‘m miqdorida bir martalik moddiy yordam pullari ajratildi;

- **6 nafar** uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarning **4 nafariga 4 mln.** so‘mdan jami **16 mln.** so‘m ijara kompensatsiyasi to‘lab berildi va **2 nafariga** xomiyalar tomonidan uy-joy qurib berildi;

- **312 nafar** qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud ehtiyojman ayollarga **234 mln.** so‘m miqdorida bir martalik moddiy yordam ajratildi.

Bundan tashqari, **3144 nafar** “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning barchasi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

"Ayollar daftari"ga kiritilgan **52 nafar** xotin-qizlarga huquqiy yordamlar va **62 nafariga** psixalogik yordamlar kursatildi.

Yuqorida aytib o‘tilgan tadbirlar bo‘yicha kelgusidagi ishlarimizni jadallashtirib, oldimizga qo‘yilgan vazifalar bajariladi.

Qo‘shrabot tumani hokimi D.Shakarboyevning 2025 yil III chorak yakuni bilan qilingan ishlari yuzasidan hisoboti tinglanib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Qo‘shrabot tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n yettinchi sessiyasi

## **QAROR QILAMAN**

1. Tumanda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” Dasturi doirasida qilingan ishlar, aholi bandligi to‘g‘risida, atrof muhitni asrash “Yashil iqtisodiyot” yili Davlat dasturi ijrosi, Yoshlar va Xotin-qizlar muammolarini hal etilishida ko‘maklashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Qo‘shrabot tumani hokimi D.Shakarboyevning 2025-yil III chorak yakuni bilan qilingan ishlari yuzasidan hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.



2. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i (Q.Xoliqulov), tuman hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlash-tirish masalalari bo'yicha o'rinbosari (I.Xoliqulov) larga tumandagi mutasaddi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlari bilan birgalikda:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-sonli qarorining ijrosini o'z vaqtida to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlash;

- "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan keng ko'lamli islohotlarni "Atrofmuhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida davlat dasturida belgilangan har bir ustuvor vazifalar, shuningdek, 2025-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi, maqsadli ko'rsatkichlar hamda birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar rejasi ijrosini o'z vaqtida va samarali ijro etilishini ta'minlash choralarini ko'rish;

- tuman hokimligi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlarining ushbu davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi bo'yicha o'z faoliyatini muvofiqlashtirish hamda joylarda ijro etilishi ustidan tizimli nazoratni ta'minlash;

- 2025-yilda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish orqali tamoyillarga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, tumanning hududiy dasturiga muvofiq, belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini to'liq ta'minlash, yetakchi tarmoqlarda iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga zamin bo'luvchi o'sish sur'atlarini bajarilishini ta'minlash masalasini doimiy nazoratga olish;

- tumanda ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish;

- tumanni ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish dasturlari hamda mahallalar hududida belgilangan qurilish-ta'mirlash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini o'z vaqtida sifatli ta'minlash choralarini ko'rish;

- tumanni ijtimoiy rivojlantirish yo'nalishida aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, ularning daromadlarini oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, xotin-qizlar, yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish, odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, farovonligini oshirish;

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga:

- o‘zlari saylangan saylov okruglarida ushbu dastur ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarning doimiy nazoratini yuritish;

- mazkur masalada joylarda uchrayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar hamda ularning yechimi yuzasidan tegishli mas’ullarga amaliy yordam ko‘rsatib borish tavsiya etilsin.

4. Tuman “Istiqbol sari” gazetasi tahririyati (X.Mamarasulov), tuman hokimligining axborot xizmati (T.Jahonov) tuman hokimining o‘rinbosarlari bilan birgalikda mazkur Farmonning mazmun-mohiyatini mahalliy ommaviy axborot vositasi va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosarlari (Q.Xoliqulov, I.Xoliqulov, O.Raxmonov, Sh.Xaydarov, O.Eshqulov, S.Mahmudova)ga, nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SHAKARBOYEV  
DILSHOD  
DAVRONOVICH